

HISTORY OF THE CITY OF YANGIYER: PAST AND PRESENT

Alimjonova Ru'zigul Bahodir qizi

National University of Uzbekistan 3rd year student, Faculty of History

Tel.:+998990444705

Abstract. This article examines the history of the establishment and development of the city of Yangiyer based on archival documents. It discusses the granting of city status in 1957, the formation of the administrative system, and changes in industry, public utilities, as well as cultural and educational spheres. In addition, attention is paid to the control exercised over religious communities during the Soviet period, the organization of cultural events, and the meaningful use of leisure time by the population. The article provides a comparative analysis of the past and present state of Yangiyer and highlights the main stages of its development.

Keywords: Syrdarya, Yangiyer, archival documents, mosque, church, cultural life, industry.

YANGIYER SHAHRI TARIXI: KECHA VA BUGUN

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangiyer shahrining tashkil topishi va rivojlanish tarixi arxiv hujjatlari asosida yoritilgan. Unda shaharning 1957-yilda shahar maqomini olishi, boshqaruv tizimining shakllanishi, sanoat, kommunal xo'jalik hamda madaniy-ma'rifiy sohalardagi o'zgarishlar bayon etilgan. Shuningdek, sovet davrida diniy jamoalar faoliyati ustidan olib borilgan nazorat, madaniy tadbirlar va aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Maqolada Yangiyer shahrining kechagi va bugungi holati solishtirilgan.

Kalit so'zlar: Sirdaryo, Yangiyer, arxiv hujjatlari, masjid, cherkov, madaniy hayot, sanoat.

ИСТОРИЯ ГОРОДА ЯНГИЕР: ПРОШЛОЕ И НАСТОЯЩЕЕ

Аннотация. В данной статье на основе архивных документов освещается история возникновения и развития города Янгиер. В ней рассматривается получение городом статуса города в 1957 году, формирование системы управления, изменения в сфере промышленности, коммунального хозяйства, а также культурно-просветительской деятельности. Кроме того, уделяется внимание контролю, осуществлявшемуся в советский период над деятельностью религиозных общин, организации культурных мероприятий и содержанию проведению досуга населения. В статье проводится сопоставительный анализ прошлого и современного состояния города Янгиер, раскрываются основные этапы его развития.

Ключевые слова: Сырдарья, Янгиер, архивные документы, мечеть, церковь, культурная жизнь, промышленность.

Kirish.

O'zbekiston hududida XX asrning ikkinchi yarmida barpo etilgan yangi shaharlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ana shunday shaharlardan biri Yangiyer bo'lib, u Sirdaryo viloyatining sanoat va madaniy markazlaridan biri sifatida shakllangan. Yangiyer shahrining vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita sovet davridagi sanoatlashtirish siyosati, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda aholining ijtimoiy turmushini yaxshilash jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili.

O'g'iloy Suyunovna; Alisher Axmatkulovich Abdumatov va Ismoiljon Xoshimjon o'g'li Rayimjonov; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi: 2000-2005 yillar; Z. Mirrahimov; S. Rovutov va T. Abduazimov.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda Yangiyer shahrining tashkil topishi va rivojlanish jarayonlarini o'rganishda hujjatlar tahlili hamda tarixiy-qiyosiy metodlar qo'llanildi. Hujjatlar tahlili metodi orqali arxiv hujjatlari, rasmiy qarorlar va statistik ma'lumotlar o'rganilib, shahar boshqaruvi, madaniy hayot va infratuzilma rivoji bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilindi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida esa Yangiyer shahrining sovet davridagi holati va hozirgi rivojlanish bosqichlari o'zaro taqqoslanib, shahar taraqqiyotidagi asosiy o'zgarishlar aniqlandi.

Tahlil va natijalar.

Yangiyer – Sirdaryo viloyatidagi shahar. Shaharga 1957 – yilda asos solingan bo'lib, Toshkentdan 150 km janubi g'arbda joylashgan. 1957 – yillardan keyin Yangiyer ishchilar posyolkasi emas, balki shahar sifatida rivojlantrish bosqichiga o'tgan. Yangiyer shahri barpo etilishidan oldin bu hudud aniq bir nomga ega bo'lgan shahar yoki qishloq emas, balki keng va suvsiz cho'l — Mirzacho'l (ruscha manbalarda "Голодная степь")ning bir qismi bo'lgan. Mirzacho'l: Shahar 1957-yilda aynan mana shu cho'lga o'zlashtirish va qo'riq yerlarni ochish loyihasi doirasida markaz sifatida tashkil etilgan.

"Yangiyer" ma'nosi: Shaharga asos solingach, unga o'zbek tilida "Yangi yer" degan ma'noni anglatuvchi nom berilgan, bu esa o'zlashtirilgan yangi hududlarga ishora qiladi

O'zbekiston SSR Toshkent viloyati Yangiyer shahar bo'yicha 1957 – yil 6 – iyunda Tashkiliy qo'mita a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlash boshlanadi.

Vaxobov A. - Tashkiliy qo'mita raisi etib belgilanadi. Unga umumiy rahbarlik, shahar xo'jaligi, xalq ta'limi bo'limi, sog'liqni saqlash, moliya bo'limi, arxitektura bo'limi, ma'muriy bo'lim, militsiya, sud va prokuratura sohalarini boshqarish topshiriladi.

Nosirov – Rais o'rinbosari lavozimiga tayinlanadi va unga FHDYO, uy-joy kommunal xo'jaligi, savdo bo'limi, jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, madaniyat bo'limi, ijtimoiy ta'minot bo'limi, aloqa bo'limi boshqarish topshiriladi.

Budilnikova A. – Tashkiliy qo'mita kotibi lavozimiga tayinlanadi va unga umumiy bo'lim, bug'alteriya, reja bo'limi, maxsus bo'lim topshiriladi [1].

Yangiyer shahar arxivi dastlab Toshkent davlat arxiviga qarashli Xovos arxivi shaklida 1954– yilda tashkil topgan va Xovos tumaniga xizmat qilgan. 1957 – yilda Toshkent davlat arxivining tumanlararo Yangiyer filiali deb qayta nomlandi. 1963- yilda Sirdaryo viloyati tashkil topdi va bu yillardan arxiv Xovos tumani va Yangiyer shahri aholisiga xizmat ko'rsata boshladi. 1965-yilda yana Sirdaryo viloyati davlat arxivining Yangiyer filiali nomini oldi. Yangiyer filialidagi arxiv boshqaruv hududlari: Boyovut tumani, Ilich tumani, Yangiyer shahri, Shirin shahri va 1973-yildan Xovos tumani hududlarini o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda PQ-4936-son Qarori, "O'zarxiv" agentligining 2020-yil 30-dekabrda 263-sonli buyrug'i, Sirdaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2021-yil 4-yanvardagi 1-sonli buyrug'iga asosan Yangiyer shahar Davlat arxiviga yangi bino qurilib, 2021-yil 25-dekabrda foydalanishga topshirildi. Hozirgi kunda Yangiyer shahar Davlat arxivi Yangiyer, Shirin shaharlari hamda Xovos va Mirzaobod tumanlariga xizmat ko'rsatadi.

1960-yillarda SSSRda diniy jamoalar faoliyati davlat tomonidan qat'iy nazorat ostiga olingan. Arxiv hujjatlarida 1963-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan va ro'yxatdan o'tmagan diniy jamoalar, ibodat uylari hamda diniy guruhlar haqida batafsil hisobotlarni topshirish talab qilingan. Hujjatlarda diniy jamoalarning hududiy faoliyati, yil davomida yuz bergan o'zgarishlar, shuningdek ziyoratgohlar ya'ni muqaddas joylarning soni va holati alohida qayd etilgan. Ziyoratchilikni cheklash yoki to'xtatish bo'yicha ko'rilgan choralar sovet

hokimiyatining an'anaviy diniy amaliyotlarga qarshi siyosatini aks ettiradi. Shuningdek, diniy jamoalarning moliyaviy faoliyati – daromad manbalari va exsonlar miqdori davlat nazoratida bo'lgan. Bu holat SSSRda nafaqat mafkuraviy, balki tashkiliy va iqtisodiy jihatdan ham cheklanganini ko'rsatadi. Madaniy va ma'rifiy ishlarning asosiy masalalariga 1963-1964 yillar davomida asosiy e'tibor qaratilgan[2].

Hozirgi payitda Sirdaryo viloyatida 59ta masjid mavjud. Yangiyer shahrida esa 2ta asosiy masjid joylashgan. Ular Muhammad Bobur jome masjidi va Abduqahhor Hoji jome masjidlaridir[3].

Bundan tashqari Yangiyer shahrida “Yangiyer” nomli xristian presviterian cherkovi mavjud[4].

Yangiyer shahrida kitob do'koni qurish 1958-yil 25- avgustda boshlanadi. Buning uchun bozor hududida, 5-“a” kvartalda yer uchaskasi ajratildi. Kitob do'konining qurilishi namunaviy loyiha bo'lib, unga tutash hududlarni ham obodonlashtirish ishlari bilan birgalikda olib borildi. Qurilishga oid barcha texnik hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari Qurilish va arxitektura ishlari bo'limida amalga oshirildi. Yangiyer shahar ijroiya qo'mitasi raisi A. Vaxobov va Yangiyer shahar ijroiya qo'mitasi kotibi A. Budilnikovalar bu qarorni tasdiqlashdi[5].

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qurilishi Respublika kontorasi tasarrufida 1958-yil 18- sentabrda Ural o'rmon savdo omboriga Yangiyer shahrining shimoliy sanoat zonasidagi yuk tushirish hududidan 3 gektar yer ajratildi. Ural o'rmon savdo ombori direktori Karashev zimmasiga qurilishni faqat tasdiqlangan loyiha bo'yicha amalga oshirish va hujjatlarni viloyat qurilishi va arxitektura bo'limida rasmiylashtirish yuklatildi [6].

Yangiyer shahrida 1957-yilda yong'in xavfsizligi talablariga amal qilinmagani sabab yong'inlar yuz berib, davlatga zarar yetgani qayd etilgan. Kuz-qish mavsumida sanoat va turar joylarda yong'inlarga qarshi choralarni kuchaytirish belgilandi. Jamoatchilik asosida ishlovchi yong'in inspektorlari tasdiqlandi va bu inspektorlarga oyiga kamida bir marta o'quv mashg'ulotlari o'tkazish topshirildi. Qurilish va boshqa tashkilotlar rahbarlari yong'in profilaktikasida amaliy yordam berish vazifalari yuklatildi. Shahar kommunal xo'jaligi mudiri Ahmad Muxammad va shahar arxitektori Melnikov Boris Vasilovich komissiya a'zosi bo'lib bu qaror ijrosida qatnashdilar [7].

1957- yildan keyin Yangiyerda bir qancha islohotlar amalga oshirilgan bular: Shahar maqomini mustahkamlash, yakka tartibdagi uy – joylar qurilishi, infiratu zilma rivoji, sanoat va ish o'rinlari, aholi soning oshishi kabi omillarga qaratilgan islohatlar edi.

Fuqaro Xarabet E.V. 1958-yil 13-fevralda Shahar madaniyat bo'limi mudiri lavozimiga tasdiqlandi. Ushbu qarorni tahlil qiladigan bo'lsak ko'rinib turibdiki shaharda faqat sanoatga emas, balki madaniy hayotga ham e'tibor qaratilgan.

Aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida bayramlar, ommaviy tadbirlar va yig'ilishlar tashkil qilindi. Yangi ko'chib kelgan ahol uchun madaniy moslashuvchanlik jarayonlari qo'llab -quvvatlandi [8].

Yangiyer shahar ijroiya qo'mitasi 1964-yil uchun Yangiyer shahar hududida 400 o'rinli kinomaydon, ya'ni kinoteatr qurilishini rejaga kiritishni so'raydi. Bu xat Golodnostepstroyning boshlig'i Tersitskiy D.K.ga yuborilgan. Bu xat haqida boshqa ma'lumotlar yo'q. Hozirgi kun bilan qaraydigan bo'lsak, Yangiyer shahrida kinoteatr mavjud emas. Bu shuni anglatadiki, bu xatga rad javobi berilgan yoki e'tiborsiz qoldirilgan. Sirdaryo bo'yicha bitta kinoteatr mavjud. Xaritada kinoteatr Guliston shahrida “Nook Cinema” degan kino joyi borligi qayd etilgan (Islom Karimov ko'chasi, 41A), lekin u hozirda ehtimol faol emas[9].

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida Yangiyer shahrining tashkil topishi va rivojlanish jarayoni tarixiy hujjatlar asosida yoritildi. O'rganilgan manbalar shahar qisqa vaqt ichida ishchilar posyolkasidan to'laqonli shahar darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Shaharda boshqaruv tizimi, sanoat va

kommunal xo'jalik bilan bir qatorda madaniy-ma'rifiy hayot ham bosqichma-bosqich shakllangan. Shuningdek, sovet davrida diniy soha ustidan olib borilgan qat'iy nazorat siyosati shaharning ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Mustaqillik yillarida esa Yangiyer shahrida ijtimoiy sohalar rivojlanib, tarixiy merosni saqlash va o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surish mumkin:

1. Yangiyer shahrining tarixiga oid arxiv hujjatlarini raqamlashtirish va ularni tadqiqotchilar hamda talabalarga ochiq holda taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

2. Shaharning tarixiy rivojlanishini targ'ib qilish uchun mahalliy muzeylar, ta'lim muassasalari va madaniyat markazlarida Yangiyer tarixiga bag'ishlangan maxsus tadbirlar va ko'rgazmalar tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangiyer shahar DA, 45 fond, 1-ro'yxat, 291-ish, 1-varoq.

2. Yangiyer shahar DA, 45 fond, 1-ro'yxat, 310-ish, 4-varoq.

3. <https://prayersconnect.com/mosques/86049531-muhammad-babur-mosque-yangiyer-sirdaryo-region-uzbekistan>.

4. https://sirdaryo.adliya.uz/sirdaryo/uz/interaktivnyeuslugi/object/?ELEMENT_ID=53998&utm_source=chatgpt.com.

5. Yangiyer shahar DA, 45 fond, 8-ro'yxat, 7-varoq

6. Yangiyer shahar DA, 45 fond, 5-ro'yxat, 31-varoq

7. Yangiyer shahar DA, 45 fond, 8-ro'yxat, 49-varoq

8. Yangiyer shahar DA, 45 fond, 6-ro'yxat, 67-varoq

9. Yangiyer shahar DA, 45 fond, 5-ro'yxat, 2-varoq